

Kafedra mudiri:

Pulatov Sherzod U

Qabul vaqti: Dushanba – Shanba (15:00-17:00 gacha)

Telefon: (0 371) 238-65-73

E-mail: shpulatov@tuit.uz

"Mobil aloqa texnologiyalari" kafedrasini (ilgari "Radioaloqa tizimlari va qurilmalari" kafedrasini deb nomlangan) 2008 yilda "Radioaloqa qurilmalari" va "Radiotexnika tizimlari" kafedralarining qo'shilishi oqibatida paydo bo'ldi.

"Radioaloqa qurilmalari" kafedrasining tarixi

Mazkur kafedra 1960 yilda "Radioqabul qilish qurilmalari" nomi bilan tashkil etildi. Kafedra mudiri lavozimiga katta o'qituvchi R.I. Mansurov tayinlandi. Kafedraning faoliyat ko'rsatgan davrida texnika fanlari nomzodi V.I. Praxov (1969-1980 y.) va M.G. Vasilyevalar (1980-1993) rahbarlik qilgan. 1993 yildan 2012 yilgacha kafedrada O'zbekiston Fanlar Akademiyasi akademigi, professor, fizika-matematika fanlari doktori T.D. Radjabov rahbarlik qilgan. Shuningdek u Xalqaro aloqa akademiyasi, Nyu – York akademiyasi, San-Fransisko ishlab chiqarish akademiyasi, Tabiiy va ijtimoiy fanlar olimlari assotsiatsiyasi akademigi.

1997 yilda radiouzatish qurilmalari yo'nalishi bo'yicha darslarni o'tkazish topshirilgan edi, shundan so'ng kafedraning nomi "Radioaloqa qurilmalari"ga almashtirildi. Kafedra rahbarlari R.I. Mansurov, V.I. Praxov va M.G. Vasilevalardan tashqari turli yillarda dotsentlar L.N. Goldfeld, V.Ya. Spirin, V.A. Lisovskiy, A.L. Galliev, A.V. Maslov, R.K. Karimov, S.A. Sazonov, A.L. Chen, P.P. Korsunsev, katta o'qituvchilar Ya.Ye. Filgus, A.G. Starikov, N.P. Dyachenko, E.V. Karelina, A.N. Sareva, T.M. Morozova, N.N. Baeva, A.V. Tarasov, A. Kondrashechkin, Sh. Nigmanov, G.N. Kuzmina, Pulatov Sh.U., Halikov F. ma'ruza, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar olib borganlar.

Kafedra o'qituvchi-muallimlari modulli va blokli metod asosida darslarni tashkil etishda birinchilardan bo'lib ma'ruzalarning audio yozuvlari va ularni tafsivlavchi vaqtinchalik diagrammalarni, elektrik sxemalarni, rasmlarni va slaydlarni tayyorlashdi. Ushbu ishlarni tashkil etishda dotsentlar M.G. Vasileva, L.N. Goldfeld va katta o'qituvchi E.V. Karelina faollik ko'rsatishdi.

1999 yilda kafedra Toshkent teleminorasida va O'zbekiston Respublikasi FA "Akademiasbob" IChBda o'z filiallarini ochdi.

"Radiotexnika tizimlari" kafedrasining tarixi

Kafedra 1970 yilda tashkil etilgan. Ushbu kafedra 1960 yilda tashkil etilgan "Radiouzatish qurilmalari" kafedrasidan ajrilib chiqqan. 1986 yilgacha mazkur kafedra "Radioaloqa va radiotexnika tizimlari" deb nomlangan va "Ko'pkanalli elektr aloqa" fakultetiga tegishli bo'lgan. 1986 yildan boshlab "Radioaloqa va radiotizimlar qurilmalari" deb nomlangan boshladi.

1996 yilda RRT fakulteti tarkibiga kiritilgan va "Radioreley va yo'ldoshli aloqa tizimlari" deb qayta nomlangan.

2003-2004 yildan boshlab "Radiotexnika tizimlari" kafedrasini deb nomlangan boshladi.

1970-1972 yillarda kafedraga dotsent V.I. Kazanskiy, 1972-1974 yillarda katta o'qituvchi S.A. Vasilev, 1974-1977 yillarda dotsent O.A. Abramyan, 1977-1997 yillarda V.Ya. Spirin va 1997-2008 yillarda dotsent R.R. Ibraimovlar rahbarlik qilganlar.

Yuqorida keltirilganlardan tashqari kafedrada katta o'qituvchi A.I. Vuloyorgis, V.I. Chijevskiy, L.V. Belkind, V.D. Mangeldina, Ye.F. Kravchenko, V.N. Rojkovlar faoliyat yuritganlar.

1974 yilda kafedra t.f.n. R.R. Ibraimov, I.K. Djalolov, B.A. Romanenko va 1977 yilda U.M. Yakubova, A.G. Negrienko, A.G. Levental, A.P. Kuzminlar kelib qo'shildilar.

2005 yilda kafedra dotsent R.R. Ibraimov, katta o'qituvchilar S.A. Vasilev, L.V. Belkind, R.Yu. Kavilova, A.P. Xatamov, E.S. Raxmitdinov va assistentlar D.A. Mirzaev, X.X. Madaminov, S.A. Abdukayumovlardan tashkil

topgan edi.

2004 yilda Motorola kompaniyasining granti bo'yicha kafedra kompyuter sinfi bilan ta'minlandi, mazkur qurilmalarda talabalar o'rganilaniyotgan fanlar bo'yicha laboratoriya ishlarini bajaradilar.

Kafedra xizmatchi xodimlari Davlat budjeti va xo'jalik shartnomalari asosida ilmiy tadqiqot ishlarini bajarib kelganlar. Bulardan asosiysi Orol dengizi hududidi to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va boshqarish maqsadida Yerning sun'iy yo'ldoshidan foydalanish, raqamli radiouzatish va televidenie dasturlarini Yerning sun'iy yo'ldoshi orqali taqsimlash muammosi, aloqa kanallari va tizimlarining asosiy texnik xarakteristikalarini masofaviy o'lchash metodlarini o'rganish va ishlab chiqish. Amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari asoslarida A.R. Arslanov va I.Ya.Leventallar tomonidan bir qator ilmiy maqolalar chop etilgan, fan nomzodlari dissertatsiyalari himoya qilingan.

2008 yilda "Radioaloqa qurilmalari" va "Radiotexnika tizimlari" kafedralari birlashtirildi va kafedra "Radioaloqa tizimlari va qurilmalari" deb nomlana boshladi. 2013 yildan "Mobil aloqa texnologiyalari" kafedrasida deb nomlandi. 2012-2017 mart oyigacha kafedraga dotsent Davronbekov D.A. rahbarlik qildi. 2017yil mart oyidan .kafedra mudiri lavozimiga katta o'qituvchi t.f.n. Sh.U. Pulatov tayinlandi.

Kafedrada 5 ta o'quv laboratoriyasi mavjud bo'lib, ular zamonaviy mobil aloqa tizimlarining avlodlari shuningdek 2G, 3G, 4G standartlari CDMA, GSM, WCDMA, LTE texnologiyalari o'quv qurilmalari bilan jihozlangan. Bundan tashqari kompyuter sinflari hamda Wi-Fi texnologiyasi asosida keng polosali simsiz aloqa tizimlari mavjud bo'lib, u yerda talabalar laboratoriya va amaliyot ishlarini bajaradilar.

Kafedra o'qituvchilari amaliy va aktual e'tiboriga ega bo'lgan bitiruvchi malakaviy ishlarga va magistrlik dissertatsiyalarga rahbarlik qiladilar.

Kafedra xodimlari xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-texnik va ilmiy-metodik konferensiyalarda faol qatnashib keladilar.

Bakalavriyat

5350100- Telekommunikatsiya texnologiyalari ("Telekommunikatsiya", "Teleradioeshittirish", "Mobil tizimlar")

Kafedrada o'qitiladigan fanlar

Bakalavriyat:

- Simsiz aloqa tizimlari va dasturlari
- Teleradioeshittirishda uzatish va qabul qilish qurilmalari
- Mobil aloqa tizimlarida uzatish va qabul qilish qurilmalari
- Mobil aloqa asoslari
- Suniy yo'ldosh aloqa tizimlari va dasturlari
- Simsiz keng polosali aloqa tizimlari
- Murakkab aloqa tizimlarini loyihalash va optimallashtirish

Magistratura:

- Ilmiy tadqiqot metodologiyasi
- Keng va o'ta keng polosali aloqa tizimlari

Kafedra professor o'qituvchilari

- Radjabov T.D.- fizika-matematika fanlari doktori, professor, O'z.F.A. akademigi
- Ibraimov R.R.- texnika fanlari nomzodi, dotsent
- Pisetcki U.V. - texnika fanlari nomzodi, dotsent
- Tashmanov E.B.- texnika fanlari doktori, katta o'qituvchi

- Ni E.V.- katta o'qituvchi
- Sultanova M.O.- katta o'qituvchi
- Xatamov A.P.- katta o'qituvchi
- Madaminov X.X.- katta o'qituvchi
- Aliyev U.T.- katta o'qituvchi
- Alimdjanov X.F.- assistent

Kafedra faoliyat olib boruvchi o'rindosh professor-o'qituvchilar:

- Davronbekov D.A.- texnika fanlari nomzodi, dotsent
- Abdukadirov A.X.- texnika fanlari nomzodi, dotsent
- Raxmanberdiev R.A.- katta o'qituvchi
- Isroilov J.D.- assistent

Kafedra hamkorlari:

- Ucell kompaniyasi;
- Uztelecom AJ filiali Uzmobil kompaniyasi